

**Olimjon SHERXOLOV,**

*Samarqand shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati geografiya fani o'qituvchisi,*

*Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: olimjonsherxolov@gmail.com*

*Tel: (97) 286 56 82*

**Bekzod MUSAYEV,**

*O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti katta o'qituvchisi,*

*Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: bekozdmusayev85@gmail.com*

*Tel: (91) 298 15 14*

*SamDU dotsenti, g.f.d L.Ibragimov taqrizi asosida*

## THE METHODOLOGY OF GEOGRAPHICAL STUDY OF THE LOCATION OF SETTLEMENTS

Annotation

The article examines the formation, settlement and factors affecting human settlements. It is argued that in the socio-economic development of settlements, its geographical location, horizontal and vertical location is important. The classification of settlements is based on their division into groups depending on the function they perform. The methods used in the survey of settlements are given.

**Key words:** Locality, location, city, village, method, forecast, geographical location, natural factors

## МЕТОДИКА ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ РАЗМЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ

Аннотация

В статье рассматривается формирование, расселение и факторы, влияющие на населенные пункты. Утверждается, что в социально-экономическом развитии поселений важное значение имеет его географическое положение, горизонтальное и вертикальное расположение. В основе классификации поселений лежит их разделение на группы в зависимости от выполняемой ими функции. Приведены методы, применяемые при обследовании населенных пунктов.

**Ключевые слова:** Населенный пункт, размещение, город, село, метод, прогноз, географическое положение, природные факторы

## AHOLI PUNKTLARI JOYLANISHINI GEOGRAFIK O'RGANISHNING METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholi punktlarining shakllanishi, joylanishi va unga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida uning geografik o'rni, gorizontal va vertikal joylashishining muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon etilgan. Aholi punktlarining klassifikatsiyasi, bajaradigan funksiyasiga qarab guruhlariga ajratilishi asoslangan. Aholi punktlarini tadqiq etishda foydalaniladigan metodlar keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** Aholi punkti, joylanish, shahar, qishloq, metod, prognoz, geografik o'rin, tabiiy omillar

**Kirish.** Aholi punktlari joylanishini geografik o'rganish aholi geografiyasidagi muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Binobarin, aholi punktlari joylanishi aholi joylanishining natijasi hisoblanib, uni nafaqat geografik, balki boshqa fan namoyondalari (arxitektorlar, iqtisodchilar, geodeziya kadastr, shaharshunoslar va h.k) ham chuqur o'rganishadi. Har bir fan o'z tadqiqoti doirasida yondoshgan holda izlanishlar, yo'nalishlarni belgilab oladi. Binobarin, iqtisodiy geografik tadqiqotlarda aholi punktlari joylanishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish nuqtai-nazaridan talqin etiladi.

Ma'lumki, aholining doimiy yashaydigan, asosiy faoliyati o'tadigan, ehtiyojining hech bo'lmaganda ma'lum bir qismini qondiradigan hududlar - bu aholi punktlaridir. Aholi punktlarining asosan ikki turi shahar va qishloqlar ham makon va zamonda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik omillarga bog'liq holda o'zgarishga uchraydi. Geografik o'rni to'g'ri tanlangan aholi punktlarining rivojlanishi tez va o'zgarishlarga moslashuvchan bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Rus olimlari N.N.Baranskiy va R.M.Kabolar aholini geografik jihatdan o'rganish zarurligini asoslab, aholi punktlarini tavsiflash metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lsa, N.I.Lyalikov esa birinchi marta MDHning qishloq aholisini har tomonlama tavsiflashni ta'kidlagan. Ular hududlarni o'rganishda taqqoslash metodining ahamiyati katta ekanligini o'qitgan. Binobarin, bu metodni tadqiqotchi ishni boshlagan vaqtida qo'llash yaxshi samara bermaydi, chunki hali o'rganilayotgan hududlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lmaligi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Aholi punktlarini o'rganishning o'ziga xos metodlari mavjud. Ma'lumki, metod-yo'l-yo'riq, usul, vosita kabi ma'nolarga ega. Har bir fan o'zining tadqiqotidan kelib chiqib turli metodlardan foydalanadi. Ayrim metodlar ko'plab sohalarida qo'llaniladi. Geografiya fanining muhim ikki tarmog'i tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya yo'nalishlari ham o'z tadqiqotlarida umumiy va xususiy metodlardan foydalanadi. Tabiiy geografik tadqiqotlarda ko'proq dala amaliyotlari muhim bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda statistik ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.

Ilmiy tadqiqotlarda bir yoki ikkita metoddan emas, bir necha metodlardan o'z joyida foydalanish samarali hisoblanadi. "Mashhur ingliz olimi F. Bekon ta'biricha, metodni yaxshi egallagan kishi, garchi u cho'loq bo'lsada, yugurib ketayotgan sog'lom kishidan manzilga (maqsadga) oldinroq etib boradi", deb ta'kidlaydi [10; 61-b.]. Chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega nazariy va amaliy bilimlarni egallagan inson o'z maqsadiga qiynalmasdan vaqtida erisha oladi.

**Tahlil va natijalar.** Aholi punktlari joylanishini o'rganishda uning shakllanishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash (nima uchun u aynan shu yerda joylashgan), geografik o'rnini baholash, aholi soniga ko'ra klassifikatsiyalash, bajaradigan funksiyasi (vazifasi), ixtisoslashuviga qarab guruhlash, aholisidan anketa-so'rovlar o'tkazish, kelgusida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini ta'minlash uchun aholisini prognoz qilish, aholi punktlarining zichligi, ular orasidagi masofasi hamda balandlik mintaqalari bo'yicha joylanishini aniqlash, aholi punktlarining joylanishidagi hududiy farqlarini aniqlab, rayonlashtirish, ekologik va ijtimoiy holatini o'rganish hamda boshqa jihatlariga e'tibor qaratish zarurdir.

Aholi punktlari shakllanishida tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosiy rol o'ynaydi. Qadimda aholi punktlari tabiiy oqar suv resurslari mavjud, qulay iqlim, unumdor tuproqqa ega yerlarda, hunarmandchilik va savdo rivoj topgan hududlarda asosan shakllangan bo'lsa, keyinchalik inson tomonidan bunyod etilgan kanallar, to'g'onlar, suv omborlari, yo'llar, sanoat korxonalari, foydali qazilmalar va boshqa obyektlar atrofida ham tarkib topa boshlagan.

"Aholi punktlari faqatgina aholi yashaydigan joylar bo'lib qolmasdan, balki aholi mehnat faoliyatini olib boradigan ishlab chiqarish markazlari hamda iqtisodiy aloqalar qiladigan joylar hisoblanadi"[4; 136-b.]. Aynan shu yondoshuv iqtisodiy geografiyada muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda matematik-statistik, kartografik, ekstrapolyatsiya, geografik taqqoslash, SWOT-tahlil, anketa-so'rov, tipologik, rayonlashtirish va boshqa metodlar qo'llaniladi. Mazkur metodlardan matematik-statistik metod ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda hududlarni o'rganishda ko'p ishlatiladi. Statistik ma'lumotlar tadqiqotning resursi, xom ayoshidir. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarda matematik-statistik usul turli xil maxsus koeffitsiyent yoki indekslarni hisoblab chiqish orqali yaxshi samara beradi"[15; 33-b.]. Hududlarni bir-biri bilan solishtirishda indeks va koeffitsiyentning ahamiyati yanada katta bo'lib, raqamlarda aniq namoyon bo'ladi.

Aholi punktlari o'rganilayotganda birinchi o'rinda uning o'tmishdagi, hozir va kelajakdagi aholi sonining o'zgarishini bilish zarur. Chunki prognoz qilishda yaqin o'tgan davrdagi aholining o'rtacha o'sishi asos qilib olingan holda kelajakdagi o'zgarishi aniqlanadi. Aholini prognoz qilishning keng tarqalgan metodlaridan biri ekstrapolyatsiyadir. "Bu metodni birinchi bo'lib, ingliz demografi M.Grinvud 1925 yili Angliya aholisi tug'ilishini prognoz qilishda qo'llangan"[2;21-b.]. Ekstrapolyatsiya metodi bo'yicha hisoblangan prognoz ma'lumotlari Exsel dasturi asosida ishlab chiqilsa, yanada oson va samarali hisoblanadi.

Aholi punktlarini o'rganishda birinchi navbatda ularning geografik o'rini aniqlash lozimdir. Ma'lumki, geografik o'rin tabiiy, iqtisodiy va siyosiy o'rinlarga bo'linadi. Hududning tabiiy geografik o'rini suv resurslariga, tog', cho'l, iqlim, tabiiy ofatlar bo'ladigan joylarga nisbatan joylanishi bo'lsa, iqtisodiy geografik o'rin xalqaro transport yo'llari, sanoatlashgan hududlar, yirik savdo markazlari va boshqa obyektlarga nisbatan o'rnatilganidir. Siyosiy geografik o'rin o'rganilayotgan hududning qo'shni davlatlarga nisbatan joylashuvidir. Bunday tashqari, ekologik, matematik, demografik, transport geografik va boshqa o'rinlar ham mavjuddir.

Geografik o'rin ko'lamiga ko'ra mikro, mezo va makro geografik o'rinlarga ajratiladi. Aslida mikro geografik o'rini qulay bo'lgan joydagina aholi punktlari shakllanadi. Mezo geografik o'rini noqulay bo'lsa, ularda yiriklashish sodir bo'lmaydi, balki asta-sekin yo'qolib ketishi ham mumkin. Makro geografik o'rini qulay bo'lgan aholi punktlarida doimo o'sish va rivojlanish bo'lib, davr o'tgan sari yiriklashib boradi.

Aholi punktlarining ko'rinishi, katta-kichikligi, zichligi, aholiyligi, ixtisoslashuvi, aholisining urf-odati, turmush tarzi, faoliyati bir-biridan farq qiladi. Shu boisdan ularni ilmiy tadqiq etish lozimdir.

Aholi punktlarini iqtisodiy geografik o'rganishda ularni turli balandlik mintaqalari (gipsometrik holati) bo'yicha tahlil qilish ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [9; 63-b.]. Ma'lumki, balandlik ortib borgan sari, harorat va havo bosimi pasayib, yog'in miqdori ortadi, o'simliklar turi hamda soni ko'payib boradi. Bu tabiiy omillar hududlarning xo'jaligiga, ixtisoslashuviga, aholi soni va zichligiga, aholi punktlarining katta-kichikligiga, odamlarning tashqi ko'rinishi va sog'ligiga turlicha ta'sir ko'rsatganligi uchun uni o'rganish yanada ahamiyatlidir.

Sh.Z.Jumaxanov ta'kidlashicha, geografik tadqiqotlar amaliyotida aholi joylashuvi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Keng ma'nodagi aholi joylashuvida aholining turar joylar bo'yicha barcha xildagi hududiy joylanish tizimi tushunilsa, tor ma'nodagisi esa ikki tushunchada, ya'ni turg'unlik va dinamiklik tushunchalarida o'z ifodasini topadi [3; 37-b.]. Ijtimoiy-iqtisodiy o'sish kuzatilayotgan hududlarda yuqoridagi barcha joylashuv shakllarini ko'rish mumkin.

Z.N.Tojiyeva "Aholi va aholi punktlarining joylashishi - bu jamiyatni tashkil etishning hududiy shakli, aholining hudud bo'ylab taqsimlanishidir. Aholi o'sishi va joylashishining muhim masalalaridan biri aholi punktlari joylashishining yagona tizimlarini barpo etishdir. Bunda aholi punktlari ishlab chiqarish, transport aloqalari, umumiy infratuzilma tarmoqlari, ijtimoiy-madaniy va dam olish joylari uzviy o'zaro bog'liq holda birlashgan bo'ladi. Ikkinchidan, aholi punktlari joylashishida tayanch markazlarni tashkil etishdir. Bu tayanch nuqtalar shaharlar, katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar bo'lishi mumkin. Ba'zan, kichik aholi punkti uchun rayon markazi yoki kichik shahar aholi punkti tayanch vazifasini o'taydi. Aynan mana shu ilmiy qarash mazmun-mohiyati jihatdan amalda uzoq vaqtdan beri o'z mavqeyini saqlab kelmoqda", deb [13; 19-b.] ilmiy asoslab beradi. Shu o'rinda barcha aholi punktlarining hududlar bo'yicha tarqalishi suv, tuproq, iqlim va relyef kabi tabiiy omillarga bog'liqligini unutmaslik lozim.

Mashhur rus geografi P.P.Semyonov-Tyanshanskiy Rossiya qishloqlariga birinchi bo'lib, batafsil ijtimoiy-iqtisodiy tavsif berdi, ularni 27 ta tipga ajratdi. Ayniqsa, uning "Muraevenskaya volost" (1880) asari alohida diqqatga sazovordir. Bu asar aholini va qishloq aholi punktlarini kompleks geografik ekspeditsiyalar yordamida o'rganish bo'yicha birinchi tajriba bo'lib, o'sha davrda Rossiya va chet mamlakatlarda aholiga bag'ishlangan ishlar orasida o'z ilmiy saviyasiga ko'ra yuqori turar edi [1; 18-b.]. Har bir aholi punktini kompleks o'rganish ko'p vaqt talab etib, murakkab jarayon hisoblanadi. Shu boisdan tadqiq etilayotgan hududdagi aholi punktlari katta yoki kichik, ko'p yo kam sonli hamda turli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lsa, u holda har tomonlama bir-biriga o'xshash aholi punktlaridan tanlab olib tadqiq etish orqali qolgan aholi punktlariga ham baho berish mumkindir.

Aholi punktlarini geografik o'rganishda shaharlar geografiyasi chuqur o'rganilganligi bilan ajralib turadi. Shaharlarni tadqiq etish har jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir hududning o'tmishi, buguni va kelajagi asosan shaharlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada shaharlarni turli rivojlanish xususiyatiga ko'ra guruhlariga ajratishda aholi soni albatta e'tiborga olinadi. Turli tabiiy geografik sharoitlarda shaharlarning rivojlanishi turlicha bo'ladi. Ayniqsa, cho'l sharoitida shaharlarning rivojlanishi eng avvalo suv manbalariga bog'liqdir [6; 151-b.]. Arid hududlarda shaharlarning tashkil etilishida foydali qazilmalarning topilishi va ishga tushirilishi birlamchi omil bo'lib, uning uzoq umr ko'rishi konlarning zahiraga qay darajada boyligiga ham bog'liqdir.

A.S.Soliyev respublikamizda aholi joylashuvi hududiy tizimlari, jumladan aglomeratsiyalarning shakllanishida gidrografiya tarmoqlarining roliga alohida ahamiyat bergan. Shaharlarning funksiyasini tadqiq etish bilan birga undagi muammolarga ham e'tibor qaratish zarurdir. Shahar qancha ko'p vazifani bajarsa, unda o'ziga xos muammolar ham ko'payib boradi. Ko'p funksiyali shaharlarga transport oqimining ortishi tirbandliklarni yuzaga keltirib, havoning kuchli ifloslanishiga sabab bo'lsa, o'qish va ish o'rinlarining ko'payishi hududga demografik bosimni oshirib, turar joylar qimmatlashishi,

jinoyatlar sonining ortishi, ekologik holati yomonlashishi va boshqalar sodir bo'ladi. Shu bois bunday shaharlarning ayrim funksiyalarini shahar atrofiga yoki boshqa aholi punktlariga o'tkazish zarur hisoblanadi.

M.M.Egamberdiyeva shaharlarning bajaradigan funksiyasi ularning katta-kichikligini ham belgilab beradi, bu shaharlar geografiyasida muhim qonuniyatlardan biridir [14; 15-b.], deb ta'kidlaydi. Ba'zan tabiiy sharoiti noqulay hududlarda joylashgan kichik shaharlar ham bir necha vazifani bajarishi mumkin.

Yirik shaharshunos olim G.M.Lappo fikricha, geograflarning asosiy vazifasi shaharlar funksiyasini atroflicha o'rganish, shuningdek, geografik mehnat taqsimoti tizimida shahar qanday "ishlaydi", mamlakat yoki rayon shahar punktlari tizimida uning o'rni qanaqa, u atrofidagi hududlar bilan qanday aloqadorlikka ega kabi masalalarni tadqiq etishdan iboratdir [6; 9-b.]. Shu boisdan, yo'l ustida, suv bo'ylarida joylashgan shaharlar rivojlanishi tez va barqaror bo'ladi.

O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini (Toshkent viloyati misolida) tadqiq etish doirasida S.Tashtayeva shahar aglomeratsiyalari rivojlanishini baholovchi va unga ta'sir etuvchi 21 ta indikatorni o'z ichiga olgan 11 ta omilni asoslab bergan [12; 140-b.]. Aglomeratsiyalarning rivojlanishida suv resurslari va qulay transport geografik o'rning ahamiyati boshqa omillarga nisbatan kattadir. Keyingi o'rinlarda, demografik jarayonlar, bajaradigan vazifasi, aholi bandligi, ilmiy va madaniy salohiyati, ekologik holati va boshqa omillar uning rivojlanishini belgilab beradi.

Shahar talablariga javob bermaydigan hududlar qishloqlardir. Qishloq aholi punktlarining yiriklashib borishi ijobiy jarayon hisoblanib, bu ularda zamonaviy ijtimoiy infratuzilma muassasalarini (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, servis xizmati va b.) rivojlantirishga qulay imkoniyatlar yaratadi [9; 11-b.]. Tadqiqot obyektida qishloqlarning yiriklashib borishi asosan suv resurslari mavjud bo'lgan janubiy va janubi-sharqiy qismida kuzatilib, Shimoliy qismidagi qishloqlarda bunday holat deyarli uchramaydi. Soy va boshqa gidrologik shahobchalar, tor tog' vodiylarida joylashgan qishloqlar uylari terrasasimon, aholi punktlari esa cho'zinchoq, tasmasimon hududiy shaklga ega bo'ladi.

Qishloqlarni o'rganishda shaharlar kabi aholi soni, o'sishi, zich yoki tarqoq joylashganligi, ixtisoslashuvi va boshqa ko'rsatkichlari e'tiborga olinadi. Birinchi navbatda aholi soniga ko'ra guruhlarga ajratiladi.

S.A.Kovalev aholisi 1000-2000 bo'lgan aholi punktlarini qishloq joylar uchun yirik, deb hisoblaydi. Chunki bunday aholi punktlarida xizmat ko'rsatish sohalari doirasini kengaytirish va rivojlantirish uchun yetarlicha sharoit vujudga keladi [5; 37-b.]. Tabiiy sharoiti noqulay hududlardagi aksariyat qishloqlarning aholisi kam bo'lib, mazkur hududlarda ayniqsa, ijtimoiy sohalarning rivojlanishi sekin boradi.

Aholi punktlari joylashishi bilan bog'liq ishlarda O.R.Rahmatullayev O'zbekistonning yirik vohalari uchun aholining "yer sig'imi" me'yorini ishlab chiqqan [8; 50-b.]. Olim bu tadqiqotida 1 km<sup>2</sup> sug'oriladigan maydonda, o'rtacha 250 kishining yashashi me'yordir deb ta'kidlagan, lekin, aksariyat hududlarda yetarli sug'oriladigan yerlar mavjud emas. Bunday yerlardan tashqari hududlarda 1 km<sup>2</sup> qancha odam yashashi me'yor ekanligini ham tadqiq etish lozimdir.

Mashhur iqlimshunos olim A.I.Voeykovning namgarchilik bilan aholi joylashuvi (zichligi) o'rtasidagi qonuniy aloqadorlik borligini tadqiq etgan [11; 20-b.]. Haqiqatdan ham aholi joylashuvida birlamchi omillardan biri iqlim bo'lib, har qanday taraqqiyotda uning o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fan texnikaning rivojlanishi noqulay iqlimli hududlarni ham qulaylashtirishga olib kelmoqda.

Aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi shahar va qishloq joylarda turlicha. Shaharlarda xizmat ko'rsatish muassasasi va korxonalarini joylashuvi, avvalo, shaharning katta-kichikligiga, shakliga, binolarning zichligi, va shuningdek, yirik korxonalarining joylashuviga bog'liq. Qishloq joylarda esa xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi avvalo, aholi joylashuviga, transport tizimlarini rivojlantirish darajasiga hamda yirik xizmat ko'rsatish markazlari sifatida shaxarlarning yaqin joylashuvi va boshqalarga bog'liqdir [7; 49-b.]. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy soha obyektlarini joylashtirishda birinchi galda aholining hozirgi va kelajakdagi sonini e'tiborga olish zarur hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar va mintaqalarning shaharlarida demografik rivojlanish juda pastdir. Bunga aholining dunyo qarashi, bilimi, bandligi, turmush tarzi va boshqa shu kabi omillar sabab bo'lsa, rivojlanayotgan davlat yoki mintaqalarning shahar joylarida bu jarayon ma'lum vaqtgacha migratsiya ta'sirida tez bo'lib, yil o'tgan sari hudud sharoitiga moslashib, demografik rivojlanishi pasayishda davom etadi. Bunday shaharlarda aholi sonining ortib borishi hisobiga demografik bosim ham ortadi. Buning oldini olish uchun yirik shaharlar atroflarida shaharchalar bunyod etilib, shahar aglomeratsiyalari vujudga keladi.

Qishloqlar ham o'ziga xos demografik rivojlanishga ega, chunki mazkur aholi punktlarida yashaydigan aholining urf-odatlarini, yashash sharoiti, ma'lumotlilik darajasi, fikri va boshqa omillari hisobiga demografik rivojlanishi tez bo'lib, shaharlarni ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun ham xizmat qiladi. Keyingi yillarda qishloqlarning ham rivojlanishi tezlashmoqda, ayniqsa, shaharga yaqin va shahar atrofidagi qishloqlar shaharga xos tus olib bormoqda. Nafaqat ko'rinish jihatidan balki, shaharga xos turmush tarz, madaniyat, dunyo qarashning kirib borishi aholisida yil sayin demografik rivojlanishni sekinlashtirib boradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, aholi punktlari joylanishiga ko'ra guruhlashgan va tarqoq, shu bilan birgalikda shakl jihatdan doirasimon, tasmasimon, tog'li hududlarda zinapoyasimon va boshqa ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shuningdek, aholi punktlari gorizontol (zonal) va vertikal jonlanishi bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. Aholi punktlarining turlicha joylanishiga tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, ekologik va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Асанов Г.Р. Аҳоли географияси. – Т.: Ўқитувчи. 1978. – 222 б.
2. Ембергенов Н. Ж. Қорақалпоғистон республикаси аҳолисининг ўсиши ва жойлашишидаги ўзгаришлар. –г.ф.н. дисс-Т.: ЎзМУ, 2011. – 148 б.
3. Жумахонов Ш.З. Наманган вилояти аҳолиси ҳудудий таркибини такомиллаштириш. –г.ф.н. дисс-Т.: ЎзМУ, 1998. – 37 б.
4. Кадилов М.А. Аholи географияси демография асослари билан. Т.: 2019. – 320 б.
5. Ковалев С.А. Сельское расселение (Географическое исследование). – М.: МГУ, 1963. – 372 с.
6. Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари (Бухоро вилояти мисолида). –г.ф.н. дисс-Т.: Бухоро, 2009. – 182 б.
7. Назаров М.И., Тожиева З.Т. Ижтимоий география. –Т., 2003. – 160 б.

8. Рахматуллаев А.Р. Ўрта ва Қуйи Зарафшон воҳа геосистемаларида экологик вазиятни оптималлаштиришнинг географик асослари. – г.ф.д. дисс. –Т.:, 2016. – 220 б.
9. Сатторов А.У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли пунктларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. – г.ф.н. дисс. – Термиз, 2009. – 215 б.
10. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Матн]: танланган асарлар / А.Солиев; масъул муҳаррир: О.Б. Ата-Мирзаев. – Т.: Камалак, 2013. – 184 б.
11. Солиев А.С. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси. -Т., 2014. – 360 б.
12. Таштаева С. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари (Тошкент агломерацияси мисолида) // Дисс. г.ф.н. –Т.: ЎзМУ, 2011. –33-37 б.
13. Тожиёва З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. – г.ф.д. дисс – Т.: ЎзМУ, 2017. – 206 б.
14. Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари (Тошкент вилояти мисолида) Номзодлик диссертацияси. – Т.,2008. – 15 б.
15. Қурбонов Ш.Б., Ўзбекистон қишлоқ туманлари ижтимоий-иқтисодий географияси. Монография.-Т.: “Мумтоз сўз”, 2019. – 234 б.